

BOSHLANGICH SINIF DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Turgunova Dilafroz Inomjonovna

Andijon Viloyati Izboskan tumani 28-umum ta'lim maktabi boshlang'ich

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtitoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. Didaktik o'yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas. Chex pedagogi Ya.A. Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Didaktik o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning tevarak atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, nutqini o'stiradi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar, o'yin faoliyati, model, o'yin komponentlari, o'yin turlari, o'yin qoidalari, motiv

Kirish

Didaktik o'yin - boshlang'ich sinif o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar-o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalartomonidan qo'llanadigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Didaktik o'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Psixologiyada bo'lsa psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatiga ega deb qaraladi. Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini Amir Temur Yaqin Sharqda harakat qilar ekan, har doim Movarounnahr uchun ham, ayni zamonda yangi zabt etilgan Ozarbayjon va Eron uchun ham hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarining u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyidir. Didaktik o'yinlarining komponentlari quyidagilar" o'yin mantiqi, o'yinning harakatiz, o'yin qoidasi.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, O'yin maqsadiga erishish uchun oz bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llasga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi O'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U O'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik O'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini



shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Didaktik o'yinlarni hamma tarkibiy komponentlari ozaro bog'liq bo'lib ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik O'yinlardan keng foydalanish an'analari, o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yonalishda "barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi.

Didaktik O'yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. O'yinda qatnashish jarayonida ubola tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O'yinning birinchi bosqichida pedagog bolani o'yinga qiziqtiradi, ularda hush kayfiyat, yangi o'yinlarni kutishga ishtiyoq uygotadi. Ikkinchi bosqichida esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat korsatadi, o'yin davomida bolalarga tez tordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yinning uchinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Didaktik o'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallagan bilim, k o'nikma, malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topa biladilar, o'zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar. O'yindan ta'lim shakli sifatidan foydalanish o'qituvchidan o'ziga ishonch va o'yinni qo'llashda mohirlik talab etadi. Didaktik o'yinlar bir qancha vazifalarni bajaradi

-ta'lim tarbiya o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatadi, tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi

-qo'llanuvchanlik aniq vaziyatda har qanday o'quv topshiriqlarini bajarish uchun bilimlarni qo'llay bilish

-motivni qo'zgash, qiziquvchanlikni oshirish o'quvchilarni bilish faoliyatiga qiziqtiradi, rag'batlantiradi, bilish qiziquvining rivojlanishiga yordam beradi. Dars faoliyatimda qo'llaydigan ba'zi didaktik o'yinlardan misollar keltiraman

a- O'yin - mashq

Bu o'yin guruhda, yoki jamoada birgalikda qo'llaniladi. Lekin bu o'yin indeviduallashtirilgan. Yani, har bir o'quvchining o'z bilimi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Bu o'yindan darsni mustahkamlash yoki o'quvchilar bilimni nazorat qilish maqsadida foydalaniladi. Masalan "adashgan harfni toping". Bir necha harflar qo'yilib, orasida bitta o'rganilmagan harf ham aralashtirib qo'yiladi. O'quvchilar o'rganilgan harflarni ongida tiklab o'rganilgan harfni topib o'qituvchiga ko'rsatadilar.

b- ijodiy izlanish o'yini

Bundan o'qituvchi hikoyadagi noto'g'ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo'magan gapni topishni aytadi. O'quvchilar izlanadilar va bunday gapni topib, nega ortiqcha ekanligini isbotlaydilar. Bunday o'yinlar ko'p vaqtni olmaydi, mahsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi.

d- mazmunli rolli o'yinlar



Bu o'yin o'quvchilar darsda o'qituvchi berilgan maqsadga muvofiq hikoyalar yoki ertaklardagi qahramonlar rolini o'ynaydilar ,yoki davra stoli tashkil etib ,turli rollarni bajaradilar .Bunday o'yinlar o'quvchilarda bilimga qiziqish uyg'otadi,ularni ijodiy ishga undaydi ,shuningdek ,kasblar bilan tanishuvlariga yordam beradi

O'qubchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta o'limga qiziqtirish lozim .Buning uchun esa o'quvchi ta o'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarini topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqтира oladigan materiallardan olishi lozim.Bining yo'li ta 'lim jarayonidagi didaktik o'yinlarni dars davomida q o'llashdir.Quyida shunday o'yin turlari bilan tanishtiraman.

“O'zim tekshiraman “

Bunday o'yinlar o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diltantlarni tanlaydi .Bunday o'yinlar har bir boshlangich sinflarda darsning avvalida o'tkaizish mumkin. O'qituvch o' quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi.Barcha o'quvchilar yozib b o'lishgach o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib k o'rsatadi .Diktant xattataga oldin yozilib,usti yopib q o'yilgan bo'lsa ,o'quvchilar pardani ochadi.O'quvchilar esa o'qituvchi yozganiga qarab o'zlari yozgan diktantlarini tekshiradilar .

“U KIM BU NINA “o'yini

Stol ustidaga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi

O'qituvchi shu predmetlardan birortasini tariflaydi, o'quvchilar diqqatini jamlash ,qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish ,ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida foydalanish mumkin.

Masalan U shar shaklida .Uni katta -katta sportchilarimiz ham maydonda o'ynaydilar.Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar.”koptok”

NATIJALAR

Ushbu yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini oshiradi,dars davomida bir-birlari bilan d o'stona munosabatda bo'lishga ,yangi mavzularni mustahkamlashga yordam beradi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda o'quvchilar faoliyati ,tarbiyaviy faoliyat tizimli va muntazam tashkil etisa ,bilishga qiziqish o'quvchi shahsining asosiy sifatlaridan biriga aylanadi va uning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bilimga qiziqish talim jarayoninig kuchli vositasiga aylanadi.Abu Rayhon Beruniy o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqish muhim vazifa ekanligini uqtirib ,”Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Maqsad gapni chozish emas ,balki o'quvchini zeriktirmaslik chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan fanga o'tib tursa ,turli bog'larda yurganga o'xshaydi.Birini korib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha narsa bor deyilganidek ularni korishga qiziqadi va kozdan kechirishni istaydi.Bir xil narsa charchatadi,xotiraga malol keltiradi”, degan edi.Shunday ekan yosh avlodga ta'lim tarbiya berish jarayonoda darslarga yangi zamonaviy pedagogik,innavastion vositalardan foydalanish o'quvchilar bilim darajasini oshirishga yordam beradi.



XULOSA (CONCLUSION)

Dars o'yishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanganda dars davomida didaktik jarayon ketadi. Didaktik jarayon bosqichlarini yolga qoyish o'quvchilarning bilimini belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari orqali tashkil etiladi. Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan mazmun va qoidalarga ega bolgan o'yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan boladi.

Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uygotish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali b o'ladi. Bunday hollarda bolada doimo yangilklar bilishga ishtiyoq uygonadi. Bilishga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash kichik maktab o'quvchilarining o'qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi, ozlashtirish darajasini oshiradi. Har bir dars jarayonida didaktik o'yinlarni o'quvchilar qiziqish bilan b ajaradilar, mustaqil fikrlashni o'rganadilar. Didaktik o'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida oquv va maehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bolan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlag 'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar Toshkent 2011
2. Abu Rayxon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" tanlangan asarlar 1-jild Toshkent 1968
3. M To'xtaxo'jayeva Pedagogika Toshkent 2010
4. Ibrohimov X.I., Abdullayeva SH.A. "Pedagogika nazariyasi" Toshkent 2008
5. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent 2021